

- “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” – Qonun;
- Hujjat raqami –O'RQ 682;
- Moddalar soni -60ta;


- ⇒ **Qonunning maqsadi** : 1. Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini belgilash 2.Normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchini belgilash 3.Normativ-huquqiy hujjatlarning nisbatini belgilash 4.Ularni rejalashtirish 5.Tashabbus qilish 6.Tayyorlash 7. Ekspertizadan o‘tkazish 8.Kelishish 9.Qabul qilish 10.E’lon qilish 11.Uning ijrosini tashkil etishni ta’minlash(1-modda) ;
- ⇒ **Normativ huquqiy hujjat nima ?** BU 1.qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, 2.umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, 3.o‘zgartirishga yoki 4.bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat(3-modda);
- ⇒ **Ushbu hujjatni qabul qilish huquqiga ega shaxslar(organ yoki mansabdor shaxslar) ro’yxati:**



Fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan tartibda o‘tkaziladigan referendum yo‘li bilan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishi mumkin.(4-modda);

■ **Mazkur qonunning prinsiplari:**

5-modda



Normativ – huquqiy hujjalarning turlari (Iyerarxiya bo'yicha joylashtirilgan)(6-modda)

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiysi;
2. O'zbekiston Respublikasining qonunları;
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorları;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonları va qarorları
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorları.

Mazkur hujjalar qonunchilik hujjati sanalib O'zbekiston Respublikasining ayni paytda qonunchiligini tashkil etadi.(7-modda);

Qonunosti hujjalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonları va qarorları;
2. Vazirlar Mahkamasining qarorları;
3. Vazirliklar(25ta edi hozirda 21tani tashkil etadi) va idoralarning buyruqlari hamda qarorları;
4. mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarorları.(7-modda)

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi va qonunları(8-modda)

- Ularning ustivorligi so'zsiz tan olinadi;
- Mamlakatning butun hududi bo'ylab oliy yuridik kuchga ega;
- Mamlakatning butun hududida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosidir;
- O'zbekiston Respublikasining qonunları va boshqa normativ-huquqiy hujjalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo'lishi mumkin emas.

- ! **O'zbekiston Respublikasida qonunlar qanday qabul qilinadi?** 1.Oliy Majlis tomonidan yoki 2.referendum o'tkazish yo'li bilan.
- ! O'zbekiston Respublikasining qonunlari huquqiy prinsiplar va normalarni mustahkamlovchi, birlashtiruvchi, tizimlashtiruvchi, shuningdek ijtimoiy munosabatlar eng muhim sohasining huquqiy jihatdan kompleks tartibga solinishini ta'minlovchi kodekslar tarzida qabul qilinishi mumkin.(9-modda)
- ! O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.(10-modda)

YO'L QO'YILMAYDI!!! Qonunosti hujjatlarida(*Yuqorida berilgan 4ta*) qonun hujjatlari darajasida tartibga solinishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha normalar belgilanishiga(11-modda)

- ✓ **O'zbekiston Respublikasi farmon va qarorlari** – 1.Konstitutsiya va2.Qonunlar **asosida** va ularni **ijro etish maqsadida** qabul qilinadi;(12-modda)



- ✓ **Vazirlar Mahkamasi qarorlari** – 1.Konstitutsiya 2.Qonunlar 3.Oliy Majlis palatalarining qarorlari 4.Prezidentning farmon va qarorlari **asosida** hamda **ularni ijro etish uchun** qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;
- ✓ **Vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari** - agar ularga qonun hujjatlari, *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish yoki ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha vakolatlar berilgan bo'ssa, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishi mumkin.*